

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi O'R MG Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i Sh.O'. Akbarov bilan tomondan, keyingi o'rnlarda «Etkazib beruvchi» deb yuritiladigan "BUSINESS-DEVELOPMENT INVEST MCHJ" nomidan Nizom asosida ish ko'ruchchi raxbari Z.Ismoilov ikkinchi tomondan oziq-ovqat va yem xashak shartnomasini tuzdilar.

### 1.Tariflar

#### 1.1 Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

Farg'ona viloyati bo'yicha Milliy gvardiya boshqarmasi xizmat otlarini oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlarini bilan ta'minlash

### 2.Shartnoma mavzusi

2. Etkazib beruvchi mazkur shartnomaga asosan beda pichani, tabiy o't pichani (*dag'al xashak*), arpa, kepak, sabzi, otar uchun tuz, ozuqaviy premiks mahsulotini sotish, "Sotib oluvchi" esa qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi esa Etkazib beruvchidan oziq-ovqat va yem xashak mahsulotlarni olib kelish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va Milliy gvardiya Farg'ona viloyati boshqarmasi hisob raqamiga mablag' ajratilganidan so'ng to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### 3.Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3 Tanlov komissiyasining 2022 yil "28" iyul kungi 11-solli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan ishlar barcha soliqlarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **63 500 500**

(Oltmisht uch million besh yuz ming besh yuz) so'mni va oziq-ovqat mahsulotlarni 2022 yil "5" avgust kuniga qadar olib kelib topshiradi.

### 4.Pudratchining majburiyatları

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnormaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni shartnoma hamda unga 2-slovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jaib qilingan kuchlar bilan bajaradi hamda mahsulotlarni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

-ushbu shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. Etkazib beruvchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan oziq-ovqat va yem xashak mahsulotlarini olib kelib topshirishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

### 5 Buyurtmachining majburiyatları

#### 5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi

-mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab oziq-ovqat va yem xashak mahsulotlarini olib kelgungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Etkazib beruvchiga berish;

-ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazorat yanidi maxsulot toifasi, navi har bir yig'ma (partiya) miqdori va yo'l xatlarida (nakladnoy) olib kelinayotgan mahsulotlar miqdorini nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rivoja etilishini nazorat qilish, Etkazib beruvchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

### 6.To'lovlar va hisob-kitoblar.

6.1. Milliy gvardiya Farg'ona viloyati boshqarmasi maxsus hisob raqamiga mablag' ajratilganidan so'ng, Buyurtmachi Etkazib beruvchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu **19 050 150** (o'n to'qqiz million ellik ming bir yuz ellik) so'mni tashkil etadi.

6.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifat tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan xolda, tegishli ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlarining umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 70% miqdorida amalga oshiriladi.

## 7.Ishlarni bajarish

7.1. Buyurtmachi oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlarini olib kelinishida qabul qiluvchi o'z qabul qilib oluvchisini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati va muddati ustidan nazoratni amalgalashiradi.

## 8.Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalarini va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari va hukumat qaron qabul qilinishi natijasida kelib chiqsa, tomonlar bunday majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgartirkdan ozod etiladilar.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 350-moddasi 1-qismiga ko'ra, Buyurtmachining majburiyatlarini quyidagi hollarda bekor bo'ladi, agar davlat organining hujjatlari chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to'liq yoki qisman mumkin bo'lmay qolsa, majburiyat to'liq yoki uning tegishli qismi bekor bo'ladi.

## 9.Kafolatlar

9.1. Etkazib beruvchi-barcha ishlarni to'liq hajmda sifatlari va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.

9.2 Etkazib beruvchi-barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini:

-olib kelinadigan beda bichani, tabiy o't pichanlan preslangan holatda har birining og'irligi 15 kg dan kam bo'lmashigi va ularning orasida begona o'tlar (xayvon yemaydigan) bo'lmashigi shuningdek quruq holatda olib kelinishi lozim;

-ishlarni qabul qilish va mahsulotlardan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

-arpa, kepak, sabzi, tuz, ozuqaviy premiks mahsulotlarini har birini maxsulot navi, sifati va davlat standarti talablariga javob beradigan oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlarini olib kelish;

-pudratchi olib kelinadigan oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlarini o'zining kuch va vositalari bilan yuklaydi va olib kelib qabul qiluvchiga topshuradi.

9.3. Agar mahsulotlardan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanişni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Etkazib beruvchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Etkazib beruvchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan mahsulotlarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsanigan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda aniqlangan kamchiliklar oqibatida yetkazilgan zarar sud orqali Etkazib beruvchidan undirib olinadi va Etkazib beruvchi belgilangan tartibda "Insosiz ijrochilarning yagona reestri"ga kirtilib, kelgusida tender va tanlov savdolarida qatnashish huquqidan mahrum etiladi.

9.4. Etkazib beruvchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan boshtorgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish meyoni hujjat talablari asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudsiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

## 10.Tomonlarning mulkiy javobgartirli

10.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun xujjalari xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgartirlikka tortiladi.

10.2 Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rivoja qilmaganligi, obektning maxsus hisob raqamiga maʼblig'lar berilgandan so'ng o'z vaqtida molihalashirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Etkazib beruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyamatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.3. Etkazib beruvchi ob'ektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiyamatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash Etkazib beruvchi ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

10.4. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan davlat standartlari talablariga javob bermasi, ish xujjalari muvofiq bo'lmasa, oziq-ovqat va yem-xashak mahsulotlari sifatsiz holatda olib kelinsa u xolda Buyurtmachi belgilangan tartibda inspeksiyasining xulosasi asosida mahsulotlarni qabul qilish va uning uchun xaq to'lashdan boshtishi, shuningdek Etkazib beruvchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiyamatining 100 foizi miqdorida janma undirish huquqiga ega.

## 11. Nizolarni hal qilish

11.1. Sharhnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar o'zaro hal etolmasalar, nizoli masalalar qonun xujjalanda belgilangan tartibda Farg'onan tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqildi.

11.2. Mazkur sharhnoma Farg'onan viloyati bo'yicha boshqarmasida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi hamda 2022 yil 31 avgustgacha amalda bo'ladi. Sharhnoma 3 (uch) nusxada tuzildi Uchala nusxa synan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

### Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

#### "Etkazib beruvchi"

BUSINESS-DEVELOPMENT INVEST MCHU Manzil:  
Farg'onan shaxar B. Marginoni ko'chasi 147  
X/R: 20208000205467783001  
Bank nomi: "Uzsoatoqquolibank" Toshkent sh.  
MFO: 00440  
STIR: 309091087

Rahbar \_\_\_\_\_ Z. Ismerov



#### "Buyurtmachi"

Milli gvardiya Farg'onan viloyati bo'yicha boshqarmasi  
Manzil: Farg'onan shaxar Mustaqillik ko'chasi 1-uy  
Tel/faks: 0 371 244-34-07, 93 371-21-29  
X/R: 2340 4000 0051 2924 8323  
STIR: 207 305 179  
Bank nomi: Farg'onan viloyati MB XKKM  
MFO: 00026

Rahbar \_\_\_\_\_ SH. Akbarov

